## II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 241,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 38,9 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 16,4 % ni) , suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 8,4 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,0 % ni) , tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 7,1 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,6 % ni) hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -2,8 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 82,0 % ni) o‘sishi kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**
*(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)*




***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 14 955,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 82,0 % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

| Mahsulot nomi | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi, (+:-) |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, ming tonna | 36,0 | 42,2 | -6,2 |
| Aroq - ming litr 100 % spirt | 0 | 0 | 0 |
| Konyak spirti - ming litr 100 % spirt | 102,6 | 79,4 | 23,2 |
| Vino, ming litr | 0 | 0 | 0 |
| Un, ming tonna | 110,9 | 125,2 | -14,3 |
| O’simlik yog’i (tozalangan), ming tonna | 11,3 | 13,3 | -2,0 |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti turlari**
*(yirik korxonalar bo‘yicha)*

| Mahsulot nomi | O‘lchov birligi | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | t | 110 854,0 | 88,5 |
| Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar | t | 49 567,0 | 80,4 |
| Tozalangan o‘simlik yog‘i | t | 11 282,0 | 84,5 |
| Paxta tolasi | t | 36 030,2 | 85,3 |
| Paxta chigiti | t | 59 162,3 | 87,8 |
| Paxta linti | t | 3 135,2 | 74,5 |
| Xom ipak (pishitilmagan) | t | 20,4 | 110,3 |
| Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish | t | 54 268,8 | 75,5 |
| Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan boshqa trikotaj polotnolar | t | 1 382,2 | 94,2 |
| Erkaklar yoki o‘g‘il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar | t | 4,0 | - |
| Trikotaj yoki to‘qilgan ustki kiyimlar | ming dona | 431,0 | 109,0 |
| Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar | ming dona | 33 349,2 | 195,2 |
| Elektr energiyasi | mln. kVt/s | 6 576,6 | 94,3 |
| Issiqlik energiyasi | ming gkal | 70,3 | 95,8 |
| Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 96 182 195,0 | 116,2 |
| Oqava suvlarning shlami | ming so‘m | 9 901 500,0 | 86,4 |
| Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 27 127 374,0 | 115,0 |

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

| Faoliyat turlari | mlrd. so‘m | ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Ishlab chiqaradigan sanoat** | **14 955,9** | **100,0** |
| oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 3 045,1 | 20,4 |
| ichimliklar ishlab chiqarish | 544,6 | 3,6 |
| tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,0 | 0,0 |
| to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 5 099,0 | 34,1 |
| kiyim ishlab chiqarish | 1 724,3 | 11,5 |
| teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 230,7 | 1,5 |
| yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish | 147,5 | 1,0 |
| qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish | 121,7 | 0,8 |
| yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 6,6 | 0,0 |
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 14,4 | 0,1 |
| kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 624,1 | 4,2 |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 158,6 | 1,1 |
| rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 340,1 | 2,3 |
| boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish | 690,1 | 4,6 |
| metallurgiya sanoati | 154,6 | 1,0 |
| mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 720,1 | 4,8 |
| kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | 24,0 | 0,2 |
| elektr uskunalar ishlab chiqarish | 532,3 | 3,6 |
| boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 110,1 | 0,7 |
| avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 23,5 | 0,2 |
| boshqa transport uchkunalari ishlab chiqarish | 1,4 | 0,0 |
| mebel ishlab chiqarish | 324,2 | 2,2 |
| boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 303,3 | 2,0 |
| mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish | 15,6 | 0,1 |

### Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida – 1,5 % ni), o‘rta-yuqori texnologiyalini ulushi 8,6 % ni (6,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 12,9 % ni (13,2 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 77,3 % ni (79,1 %) tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,** *% da*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 003,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 16,4 % ni) tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va xavoni konditsiyalash o‘tgan-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 38,9 foizga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
*(2022- yil yanvar-dekabr)*

| | 2022- yil | 2021- yil | 2021- yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| Elektroyenergiya - mln. kVt/s | 6 576,6 | 6 974,6 | 94,3 |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal | 70,3 | 73,4 | 95,8 |

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 174,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

**Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Mingbuloq tumani (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 125,4 % ga), Chust tumani (121,2 % ga), Kosonsoy tumani (121,2 % ga) hamda To'raqo'rg'on tumani (117,8 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

| | Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm) | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami** | **18 241,8** | **100,0** | **109,4** |
| Namangan sh. | 7 118,6 | 38,9 | 104,4 |
| Mingbuloq | 758,7 | 4,2 | 125,4 |
| Kosonsoy | 959,1 | 5,3 | 121,2 |
| Namangan t. | 1 063,8 | 5,8 | 105,6 |
| Norin | 245,2 | 1,3 | 108,0 |
| Pop | 523,8 | 2,9 | 106,3 |
| To'raqo'rg'on | 3 247,3 | 17,8 | 117,8 |
| Uychi | 1 045,5 | 5,7 | 103,1 |
| Uchqo'rg'on | 1 079,6 | 5,9 | 106,0 |
| Chortoq | 375,4 | 2,1 | 109,8 |
| Chust | 1 523,7 | 8,4 | 121,2 |
| Yangiqo'rg'on | 301,1 | 1,7 | 107,0 |

**Tuman(shahar)lar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, indeksning o‘sish sur’atlari**

*(2022- yil yanvar-dekabr)*

*(o‘tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati % da)*




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,9 % ulushini), To‘raqo‘rg‘on (17,8 %), Chust (8,4 %), Uchqo‘rg‘on (5,9 %), Namangan tumani (5,8 %), Uychi (5,7 %), tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko‘rilganda, To‘raqo‘rg‘on tumanida 13 731,5 ming so‘m, Namangan shahrida 10 630,7 ming so‘m, Uchqo‘rg‘on tumanlarida 6 000,5 ming so‘m, Mingbuloq tumanida 5 721,9 ming so‘m, Namangan tumanida 5 719,4 ming so‘mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘sish sur’atlari Mingbuloq tumanida (2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 122,8 %), Chust (118,9 %), Kosonsoy (118,5 %), To‘raqo‘rg‘on (115,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uychi tumanida (100,7 %) va Namangan shahrida (101,8 %) o‘sishning past sur’atlari kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*
*(2022- yil yanvar-dekabr)*




**Tuman(shahar)lar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi,** *ming so‘mda*
*(2022- yil yanvar-dekabr)*



**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 594,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 19,7 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi,** *% da.*







**Hududlar bo‘yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*

*(2022- yil yanvar-dekabr)*



**2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur‘atlari**

| | Aholi jon boshiga (ming so‘mda) | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha** | **6 153,7** | **107,0** |
| Namangan sh. | 10 630,7 | 101,8 |
| Mingbuloq | 5 721,9 | 122,8 |
| Kosonsoy | 4 354,9 | 118,5 |
| Namangan t. | 5 719,4 | 103,2 |
| Norin | 1 434,6 | 106,0 |
| Pop | 2 286,6 | 104,3 |
| To‘raqo‘rg‘on | 13 731,5 | 115,0 |
| Uychi | 4 653,8 | 100,7 |
| Uchqo‘rg‘on | 6 000,5 | 103,9 |
| Chortoq | 1 802,2 | 107,6 |
| Chust | 5 498,3 | 118,9 |
| Yangiqo‘rg‘on | 1 312,1 | 104,6 |

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 331,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,7 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on, Chortoq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uychi (74,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (10,8 %), Uchqo‘rg‘on (23,3 %) va Kosonsoy (38,1 %) tumanlarida kuzatildi**.**

**Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi,** *% da*

*(2022- yil yanvar-dekabr)*




## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 131 ta loyiha bo‘yicha 1 514,0 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

*(2022- yil yanvar-dekabr)*

| Ko‘rsatkichlar | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni,** *birlik* | 66 | 131 |
| **Korxonalar soni,** *birlik* | 50 | 72 |
| **Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. so‘m* | 668,9 | 1 514,0 |
| **Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi,** *mln AQSH doll.* | 10,1 | 19,3 |
| **Yaratilgan yangi ish o‘rinlari,** *birlik* | 1 114 | 1 246 |

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 888 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 3 005 tasi Namangan shahriga, 598 tasi Kosonsoy, 587 tasi Uychi, 553 tasi Namangan, 571 tasi Chust, 506 tasi To‘raqo‘rg‘on, 446 tasi Uchqo‘rg‘on, 392 tasi Norin, 374 tasi Yangiqo‘rg‘on, 340 tasi Chortoq, 311 tasi Pop hamda 205 tasi Mingbuloq tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1 495 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo‘lib, ulardan 63,2 % Namangan shahri, Uchqo‘rg‘on, Namangan va Uychi tumanlariga to‘g‘ri keldi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni,** *birlikda*
*(2023- yil 1- yanvar holatiga)*




## Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan (117,9 %) oshishiga ta’sir ko‘rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 58,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha 2022- yil yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**

| | Halq iste’mol mollari (mlrd. so‘m) | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha jami** | **10 577,6** | **100,0** | **117,9** |
| Namangan sh. | 4 518,5 | 42,9 | 110,1 |
| Mingbuloq | 421,5 | 4,0 | 126,5 |
| Kosonsoy | 783,1 | 7,4 | 118,9 |
| Namangan t. | 818,7 | 7,7 | 109,8 |
| Norin | 120,3 | 1,1 | 107,5 |
| Pop | 340,9 | 3,2 | 111,2 |
| To‘raqo‘rg‘on | 910,0 | 8,6 | 131,3 |
| Uychi | 415,0 | 3,9 | 109,2 |
| Uchqo‘rg‘on | 510,3 | 4,8 | 108,9 |
| Chortoq | 360,5 | 3,4 | 116,9 |
| Chust | 1 093,2 | 10,3 | 181,9 |
| Yangiqo‘rg‘on | 285,6 | 2,7 | 110,7 |

**Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**
*(2022- yil yanvar-dekabr)*




**Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**
*(jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)*



## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,9 % ni, shuningdek Uchqo'rg'on tumani 9,6 % ni, Namangan tumani esa 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Chortoq (148,7 %), Kosonsoy (134,8 %) va Mingbuloq (132,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha 2022- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**

| | (mlrd. so'm) | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami** | **3 164,8** | **100,0** | **106,8** |
| Namangan sh. | 1 423,1 | 44,9 | 102,0 |
| Mingbuloq | 96,9 | 3,1 | 132,0 |
| Kosonsoy | 88,1 | 2,8 | 134,8 |
| Namangan t. | 298,2 | 9,4 | 90,3 |
| Norin | 58,8 | 1,9 | 114,9 |
| Pop | 198,7 | 6,3 | 123,0 |
| To'raqo'rg'on | 69,8 | 2,2 | 121,7 |
| Uychi | 146,7 | 4,6 | 96,2 |
| Uchqo'rg'on | 304 | 9,6 | 108,1 |
| Chortoq | 252,9 | 8,0 | 148,7 |
| Chust | 102 | 3,2 | 119,0 |
| Yangiqo'rg'on | 125,6 | 4,0 | 90,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 41,7 % ni, shuningdek Chust tumani 13,4 % ni, To‘raqo‘rg‘on tumani 11,3 % ni, Kosonsoy tumani esa 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Chust (192,3 %), Yangiqo‘rg‘on (134,7 %), To‘raqo‘rg‘on (132,2 %) va Namangan (125,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha 2022- yil yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**

| | (mlrd. so‘m) | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Viloyat jami** | **7 412,8** | **100,0** | **123,4** |
| Namangan sh. | 3 095,4 | 41,7 | 114,2 |
| Mingbuloq | 324,6 | 4,4 | 125,0 |
| Kosonsoy | 695,0 | 9,4 | 117,1 |
| Namangan t. | 520,5 | 7,0 | 125,4 |
| Norin | 61,5 | 0,8 | 101,3 |
| Pop | 142,2 | 1,9 | 98,0 |
| To‘raqo‘rg‘on | 840,2 | 11,3 | 132,2 |
| Uychi | 268,3 | 3,6 | 85,8 |
| Uchqo‘rg‘on | 206,3 | 2,8 | 110,0 |
| Chortoq | 107,6 | 1,5 | 77,7 |
| Chust | 991,2 | 13,4 | 192,3 |
| Yangiqo‘rg‘on | 160,0 | 2,2 | 134,7 |